



TRANSTERMINLASHUV ASOSIDA YUZAGA KELGAN AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TERMINLARI

Pulatov Sharifjon Yigitaliyevich,
Qo‘qon DU t.f.d., professor
Adiba To‘raxo‘jaeva Xalilullaevna,
Qo‘qon DU dotsenti

Annotatsiya

Maqolada axborot-kommunikatsiya sohasiga oid terminlardagi lisoniy o‘zgarishlar va transterminlashuv hodisasi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: transterminlik, axborot-texnologiya, o‘z ma‘no, ko‘chma ma‘no, metafora, o‘zlashma so‘z.

Annotation

This article deals with linguistic changes in terms of ICT and their initial classroom teaching.

Key words: transtermination, information-technology, its meaning, portable meaning, metaphor, functionality.

Аннотация

В данной статье идёт речь о языковые изменения и событие транстерминализация в информационно-коммуникационных терминах.

Ключевые слова: транстерминализация, информационно-коммуникационный, главное значение, переносное значение, метафора, заимствованное слово.

So‘nggi chorak asr davomida respublikamizda yuzaga kelgan milliy davlatchilik tizimining qaror topishi, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi, dunyo xalqlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqaning yuzaga kelishi, jamiyat hayotining madaniy va ma‘naviy sohalarida erkin muloqot muhitining yaratilishi kabi zalvorli o‘zgarishlar bu davr tilining rivojiga ham katta ta‘sir o‘tkazdi. Til sathlari ichida leksika ijtimoiy hayotning taraqqiyot darajasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi uchun bu o‘zgarishlar, avvalo, tilning lug‘at tarkibida o‘z ifodasini topdi. Shuning uchun ham “tilning so‘z boyligini o‘rganish bilan shu tilda so‘zlovchi xalqning turmush tarzi, uzoq o‘tmishi, bugungi hayoti va hatto uning taraqqiyot darajasi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish mumkin”[1].

Mustaqillik davrida tilimizda paydo bo‘lgan minglab yangi so‘zlar va tushunchalar jamiyat hayotining turli sohalariga tegishlidir. Albatta mustaqillikning dastlabki yillarida eng avval iqtisodiy sohani isloh qilishga asosiy e‘tibor qaratilganligi bois, dastlab o‘zbek tili leksik tarkibida iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi alohida terminologiya vujudga keldi. Bugungi kunga kelib esa, axborot-kommunikatsiya olamining shitob bilan rivojlanib borayotgani natijasida dunyoning ko‘plab tillari qatori o‘zbek tili ham shu sohaga oid tushunchalarni nomlovchi termin va atamalar bilan boyib bormoqda.

Tilshunoslikda, xususan, terminologik tadqiqotlarda terminlarning asosan ikki xil ichki va tashqi manba asosida hosil bo‘lishi ta’kidlanadi. Ulardan birinchisi tilda mavjud leksema asosida termin hosil qilish bo‘lsa, ikkinchisi boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirishdir. Ichki manba asosida termin yuzaga kelishining ham o‘z navbatida 3 xil — affiksatsiya, semantik va sintaktik usullari mavjud. Semantik usulda termin hosil bo‘lishi dunyo va o‘zbek tilshunosligida transterminlashuv hodisasi sifatida ham tadqiq etilgan[2].

Axborot texnologiyalari terminlari tarkibini ham boshqa tillardan olingan o‘zlashmalar va semantik usulda hosil bo‘lgan terminlartashkil etadi. Transterminlashuv — umumiste’moldagi leksemalarning axborot kommunikatsiya sohasiga oid terminga aylanishi bu boradagi faollashgan usuldir.

“Istiqloq davri leksikasida yangi ma’no kasb etgan so‘zlardan biri dasturdir” deb e’tirof etadi tilshunos olim Yo.Odilov va mazkur leksemaning ma’noviy tuzilishidagi o‘zgarishlarni ikki va besh jildli izohli lug‘atlar ma’lumotlarini taqqoslash orqali ochib beradi[3]. Bu leksemaning keyingi yillarda nolisaniy omillarning ob’ektiv ta’siri o‘laroq tilda mavjud ma’nolari ko‘lami kengayishidan tashkari axborot-kommunikatsiya termini sifatida ham yana bir bor ma’noga egabo‘lganligini ta’kidlaydi. Ko‘rinadiki, bu o‘rinda ham transterminlashuv ro‘y bergan.

Dastur *Hisoblash mashinasiga algoritmi beruvchi ko‘rsatmalar (buyruq yoki tasnif va operatorlar)ning ketma-ketligi*[4].

Hozirgi o‘zbek tilidagi tugmacha, savatcha so‘zlari ham ma’no taraqqiyotiga uchrashi natijasida, ularning ma’no miqdori ortgan. Ular bir ma’noli so‘zdan ko‘p ma’noli so‘zga aylangan. Buning natijasida esa umumiste’moldagi leksema soha terminiga aylangan.

Tugma1 *Kiyim, g‘ilof va sh.k. ning chetiga qadaladigan, odatda to‘garak shaklidagi tutqich.*

2 *Ulagich knopka*[5].

Tugmacha —kompyuter, telefon pult kabi qurilmalarning yuza qismida muayyan tartibda joylashtirilgan doira yoki to‘rtburchak shaklidagi ulagich va ularning har biri[6].

Diqqat qilinsa, bu o‘rinda *tugma* metaforik ma’no ko‘chishiga asoslangan bo‘lib, mazkur predmetlar o‘rtasidagi shakliy o‘xshashlik ko‘zda tutilgan va bu misol ham transtermin hosil qilgan.

Savat *Tol, tut, yulg‘un novdalari, bug‘doy poyasi, sim, plastmassa va sh.k. dan to‘qib tayyorlangan ro‘zg‘or buyumi, idish*[7].

Savatcha— *o‘chirilga nma‘lumotlarni vaqtincha saqlab turish uchun xizmat qiluvchi katalog*[8].

Savatcha leksemasida ham yangi ma’no predmetlarning shakliy o‘xshashligi asosida yuzaga kelgan, ya’ni metafora asosidagi nom ko‘chishi yuzaga kelgan. SHuningdek, o‘zbek tili umumleksikasiga mansub *sahifa, oyna, uya* kabi leksemalar ham axborot texnologiyalariga tegishli termin sifatida olinganda muayyan terminologik ma’no kasb etadi.

Oyna leksemasiningizohli lug‘atda quyidagi to‘rtta ma’nosi berilgan.

Oyna1 Odatda deraza, eshik ko‘zlariga o‘rnatish uchun ishlatiladigan yassi shisha.

2 cm. Deraza.

3 Qarshisidagi narsalarni aks ettiradigan, odatda kishi o‘z aksini ko‘radigan, orqasi sirlangan maxsus shisha; ko‘zgu.

4 ko‘chma Biror holatni, hodisani aks ettirib yoki yoritib turgan narsa; ko‘zgu[9].

Oyna so‘zi termin sifatida quyidagi yangi ma‘noga ega bo‘ldi.

Oyna Dasturiy qo‘llanmani yoki hujjatni ko‘rsatadigan displey ekranining to‘rtburchakli qismi, dastur yoki foydalanuvchi ayrim ekran bilan ishlagandek ishlaydigan, ekran qismi[10].

Bu leksemaning terminologik ma‘nosi uning ikkinchi deraza ma‘nosi asosida kelib chiqqan. Bu har ikki predmet shaklan o‘xshash bo‘lib, metaforik ma‘no ko‘chishi asosida yuzaga kelgan.

Uya leksemasining ham izohli lug‘atda to‘rtta ma‘nosi qayd etilgan.

Uya 1 Yovvoyi hayvonlar, qushlar va hasharotlarning yashash va ko‘payish uchun moslab yasagan joyi, uyi; in.

2 q.x. Urug‘ni tashlash, ekish uchun ochilgan chuqurcha, joy.

3 Yomon niyatli kishilar o‘rnashgan yoki uchrashadigan, to‘planadigan joy, makon.

4 ko‘chma Fitna, vaxima, qayg‘u va sh.k. lar ko‘plab mavjud bo‘lgan yoki paydo bo‘ladigan joy, makon[11].

Uya (yacheyka) terminining ma‘nosi sohaga oid lug‘atda shunday izohlangan.

Uya Jadvaliy qo‘llanmalarda – ma‘lumotlar elementini (matn, son qiymati, formula) kiritish uchun mo‘ljallangan to‘g‘ri burchak shaklli katak[12].

Izohlardan ko‘rinadiki, har ikki holatda leksemalar ichida yashash, joylashish xususiyatiga ko‘ra umumiylik kasb etadi. Bu misolda ham terminologik ma‘no bosh ma‘no asosida hosil bo‘lgan hamda vazifadoshlik asosida yangi ma‘no hosil bo‘lgan.

Mustaqillik davridagi yangi axborot-texnologiyalariga oid tushunchalarni ifodalashda bir qator rivojlangan mamlakatlarning milliy tillarida qo‘llanilayotgan leksemalarga ham ehtiyoj sezildi. Natijada *gadjet, profil, provayder, akkaunt, domen, onlayn, set, virtual* singari bir qancha yangi olinma leksemalar paydo bo‘ldi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, aksariyat axborot-kommunikatsiya sohasiga oid terminlarining o‘zbekcha muqobili yaratilgan. Lekin ko‘p hollarda muloqot jarayonida ularni *korzina (savatcha), okno (oina), stranitsa (sahifa)* tarzida qo‘llanishiga guvoh bo‘lamiz.

Tilimizning ifoda imkoniyatlarini kuchaytirish, til egalarining unga bo‘lgan hurmat-e‘tiborini oshirish uchun ham ana shunday ommalashgan, ko‘p qo‘llaniladigan soha terminlarining ma‘nosini boshlang‘ich sinfdanoq o‘rgatib borish zarur. Zero, hozirgi axborot va texnologiyalar asrida *kompyuter, noutbuk, planshet, smartfon* kabi elektron qurilmalar va ular bilan bog‘liq tushunchalarni hatto maktabgacha yoshdagi bolalar ham yaxshi tushunadi va o‘z nutqida qo‘llaydi.

Xullas, o‘quvchilarning so‘z boyligini, nutqiy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ishlar ko‘lami va mazmunini yangilash ularning zamon bilan hamnafas bo‘lishlarining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Г. Шухард Избранные статьи по языкознанию, М.Наука 1952; с.52
2. G‘ . Ismoilov O‘zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo‘lishi. Nomz.dis...avtoref.-Toshkent, 2011, B.8
3. Yo.Odilov Axborot-kommunikatsiya leksikasidagi ma‘noviy o‘zgarishlar. O‘zbek tili va adabiyoti// 2016 №5-son,B.10
4. D.M. Amirov va boshqalar. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. Toshkent. 2010, B.68
5. O‘TIL. (4-tom), B.176.
6. Yo. Odilov O‘sha manba. B.12
7. O‘TIL. 3-tom, B.413
8. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. 8-sinf uchun darslik. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”: Toshkent—2015. B.139
9. O‘TIL. 3-tom, B.101
10. D.M. Amirov va boshqalar. O‘sha manba.B.178
11. O‘TIL. 4-tom, B.313
12. D.M. Amirov va boshqalar. O‘sha manba. B.251